



Islom shariatida ittifoq qilingan asoslar

Buranov Abulqosim

Toshkent islom instituti talabasi

t.me: abulqosimburanov

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom shariatida ittifoq qilingan asoslar va Qur’oni Karimdan dalil olish hamda Qur’oni Karimda dalil bo’lmasa hadisdan qanday dalil olish masalalarini keltirib o’tamiz.

Kalit so’zlar: Qur’on, Sunnat, Ijmo’, Qiyos, shariat, mazhab.

Islom shariatida barcha Islom ulamolari qaysi mazhabga mansub bo’lishlaridan qat’iy nazar, insondan sodir bo’lgan har qanday ishga, u aytgan har bir so’zga, ular ibodat bo’ladimi, muomila bo’ladimi, jinoyat bo’ladimi, jazo bo’ladimi, oilaga taalluqli masala bo’ladimi, ularga yarasha hukm borligiga ittifoq qilganlar. Islom olimlarining aytishlaricha, insonlarning qilgan ishlarining hukmi asosan to’rt manbadan chiqariladi. Ular Qur’on, Sunnat, Ijmo’, Qiyosdir. Ushbu to’rt manbaning shar’iy manba sifatida hujjat ekanligiga hamda darajalari ham shu tartibga ko’ra ekanligiga hamma olimlar ittifoq qilganlar. Bular “Usulul-ahkom”, ya’ni, hukmlarning asli, asosi deb ham aytiladi. Masalan, muftahiddan biror ishning shar’iy hukmi so’ralsa, u avval Qur’oni-karimdan javob izlaydi, javob topsa unga binoan hukm qiladi. Agar topmasa, sunnatga murojat qiladi, javobi topilsa sunnatga suyangon holda hukm chiqaradi. Agar undan ham topilmasa, so’ralgan ish hukmiga Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam vafotlaridan so’ng muftahiddar aynan o’sha so’ralgan ish yuzasidan yakdil fikrga kelgan bo’lsalar shunga ko’ra javob beradi. Agar



bunday ijmo' mavjud bo'lmasa, mujtahid u ishning shar'iy hukmini chiqarish uchun qiyos yo'li bilan mazkur ishga o'xshash ishlar yuzasidan shariatga berilgan javoblarga ilmiy asosda yondashib, har tomonlama mulohaza qilib taqqoslab, o'zining bor ilmini sarflab javob beradi.¹

Mazkur to'rt asosiy manbaning haqqoniyligiga hamda shu tartibda kelishiga Qur'on oyati dalildir.

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا أَطِيعُوا اللَّهَ وَأَطِيعُوا الرَّسُولَ وَأُولِي الْأَمْرِ مِنْكُمْ فَإِنْ تَنَازَعْتُمْ فِي شَيْءٍ فَرُدُّوهُ إِلَى اللَّهِ وَالرَّسُولِ إِنْ كُنْتُمْ تُؤْمِنُونَ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ ذَلِكَ خَيْرٌ وَأَحْسَنُ تَأْوِيلًا

“Ey, iymon keltirganlar Allohga itoat etingiz, Payg'ambarga va o'zlaringizdan (bo'lmish) ish egalari (rahbarlarga) itoat etingiz. Bordiyu biror narsada kelisha olmay qolsangiz, Allohga va oxirat kuniga ishonadigan bo'lsangiz, uni Allohga va payg'ambarga havola qilingiz. Mana shu yaxshiroq va yechimi chiroyliroq ishdur“.²

Mazkur oyati karimadagi “Allohga itoat qilish”dan Qur'onga ergashish tushunilishi lozim. Rasulga itoat qilish deganda sunnatga ergashish; o'zlaringdan chiqqan ish egalariga (ulul-amrga) itoat qilinglar, deyilganida, ulamolarga ergashish tushuniladi. “Ulul-amr”ni hazrati Abbos roziyallohu anhu ulamolar deb tafsir qilganlar. Ammo bir fikrga kelisha olmagan masalani Allohga va rasuliga qaytarish – Alloh va uning rasuli aytgan hukmlarga solishtirish, ya'ni, qiyos qilish demakdir.

Hukm chiqarishda mazkur tartibga, ya'ni, avval Qur'on, keyin Sunnat, so'ng ijmo', va undan keyin qiyos kelishiga yana bir dalil Rasululloh sollallohu alayhi vasallam

¹ Usulul fiqh. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad sodiq. 2019

² Niso surasi 59-oyat A.Mansur qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi T.2001



Muoz ibn Jabal roziyallohu anhuri Yaman musulmonlariga ta'lim berish uchun yuborayotgan vaqtlaridagi ko'rsatmalaridir. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Muoz roziyallohu anhudan so'radilar.

- Agar sendan biror masala so'ralsa nima bilan hukm qilasan ?

- Allohning kitobi ila hukm qilaman. -Agar javobini Allohning kitobidan topa olmasangchi? -Unda Alloh rasulining sunnati ila hukm qilaman. -Agar Alloh rasulining sunnatidan ham topa olmasangchi ? -Unda bor bilimini sarflab ijti hod qilaman , – dedilar. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hazrati Muozning ko'kraklariga tashakkurona urib: “Alloh rasulining elchisi ya'ni, Muozni Allohning rasuli rozi bo'ladigan ishga muvaffaq qilgan Allohga shukrlar bo'lsin” dedilar. Shunday qilib, mazkur hadisi sharif Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning Muoz roziyallohu anhuri javoblaridan mamnun bo'lganliklari, uni tasdiqlaganlari har bir ishga hukm chiqarishda tartib shunday bo'lishga dalildir. Bundan tashqari Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning vafotlaridan so'ng ham xuddi shu tartib saqlanib qolganligi va uni xalifalar, sahobalar hayotiga amaliy tatbiq qilganlari haqida bir qancha sahih rivoyatlar sobit bo'lgandir. Imom al-Farro Maymun ibn Mehron: “Abu Bakr roziyallohu anhu agar kishilar o'rtasida sodir bo'lgan ishni hal qilishlari lozim bo'lib qolsa, Allohning kitobiga qarardilar. Unda so'ralgan narsaning yechimi bor bo'lsa, shunga muvofiq hukm chiqarardilar agar Allohning kitobidan bu savolga javob topa olmasalar, Rasulullohdan aynan shu masalaning yechimiga aytilgan hadisni bilsalar, shunga binoan javob berardilar. Bordi-yu bilmasalar yoki sunnatdan topa olmasalar, o'sha davrni maslahatga layoqati bor kishilarni to'plab bir yechimga kelishsa, shunga ko'ra hukm qilardilar. Hazrati Umar ham xuddi shu yo'lni tutardilar” deb rivoyat qiladi.

Abu Bakr roziyallohu anhu va Umar roziyallohu anhuri mazkur ish tartiblarini ulug' sahobalar, mashhur zabardast olimlar ma'qullaganlar.



Tarixdan ma'lumki, bu tartibga ularning birortalari ham muxolif ish olib bormadilar. Bugungi kunimizda ham bu tartibga barcha musulmonlar tomonidan asl holicha amal qilib kelinmoqda, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Foydalanilgan manbaalar:

1. A.Mansur qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi T.2001
2. Usulul fiqh. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2019